

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
ISTITUTI**

**YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI
“GEODEZIYA VA YER KADASTRI ” KAFEDRASI**

YER KADASTRI


**2-mavzu: . ER KADASTRI MA'LUMOTLARINI OLİSH
QAYTA ISHLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI**

2.1. Er kadstri ma'lumotlarini olish yo'llari

Тошкент 2013.

Er kadastrini muvaffaqiyatli yuritish o'z navbatida erlarning xuquqiy, xo'jalik hamda tabiiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qiladi. Bu esa er kadastrining xar bir tarkibiy qismi uchun ularga mos keladigan ko'rsatkichlarni aniqlash zaruriyatini tug'diradi.

Tuproq
bonitirovkasi



er maydonlari va bonitet ballari, erlarni iqtisodiy jixatdan baholari kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi

Umuman yuqoridagilardan ko'rindan, er kadastrini ilmiy asosda yuritish juda ko'p sonli turli - tuman ma'lumotlarni olish, materiallarni to'plash va o'rganish ularni tahlil qilish hamda bir tizimga keltirishni talab qiladi.

Er kadastro ma'lumotlarini olish uchun turli usullardan foydalaniladi. Ular er kadastro ko'rsatkichlarining mohiyatiga bog'liqdir. Masalan, er maydonlarini hisoblash uchun joyni tasvirga olish bo'yicha ishlar o'tkaziladi, tuproqlarning tabiiy xususiyatlarining ko'rsatkichlarini aniqlash uchun - erlarni kuzatuv, erlarni iqtisodiy jihatdan baholash uchun esa erlarni xo'jalik jihatdan foydalanish to'g'risida statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil qilish ishlari bajariladi.

Er kadastro iishlari - bu bir vaqtning o'zidagina o'tkaziladigan tadbir emas, balki erlarning holati haqidagi ma'lumotlarni olish va yangilab turish bo'yicha doimiy jarayondir. Er kadastro ma'lumotlarini bir tizimga keltirish er egalari, erdan foydalanuvchilar er mulkdorlari tomonidan ishlab chiqarish faoliyatlaridan undan maqsadli foydalanishlari uchun, shuningdek er fondini davlat tomonidan boshqarish uchun zarurdir. SHuning uchun xam, eng avvalo, er kadastro ma'lumotlarini olish yo'llari to'g'risida aniq bir tasavvurga ega bo'lish muhimdir. Bularga asosan joyni tasvirga olish va kuzatuv iishlari kiradi.

Plan-kartografik materiallar - bu er maydonlarining kenglik joylashishi, holati hamda foydalanishini kog'ozda ma'lum bir mashtabda aks ettirilgan materiallardir. Erning kenglik joylashishi shakli, tomonlarining nisbatlari, yonma-yon joylashgan erlar bo'yicha chegaralarni belgilanishi bilan tavsiflanadi. Bu materiallar er kadastro ma'lumotlarini ko'rgazmaligini ta'minlaydi, maydonlarni tushirilib qoldirilishidan yoki qaytarilishidan ogohlantiradi, zarur bo'lgan ma'lumotlarni doimiy ravishda va ob'ektiv tarzda olishga imkon beradi. Plan kartografik materiallarsiz er kadastrining hech bir tarkibiy kismi bo'yicha ma'lumotlar olish amaliy jihatdan mumkin emas.

Erning sun'niy yo'ldoshlari, kosmik kemalarning uchirilishini rivojlanishi, kosmik laboratoriyalarni vujudga kelishi munosabati bilan er yuzasini aerokosmik usullar yordamida o'rghanishga imkoniyat paydo bo'ldi. Bu usul erni distansion zondlash deb yuritiladi. Kosmik apparatlar yordamida er resurslari to'g'risida ma'lumotlar olishning anchagina keng tarqalgan usullari – bu optik va infraqizil diapazonlarda ko'p spekirli tasvirga olish va radiolokatsion tasvirga olishdir.

Erning ustki qismi bo'yicha olingan kosmik tasvirlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatiga egadir. Odatda, tabiiy resurslarni o'rganish uchun foydalaniladigan an'anaviy usullar turli vaqtarda va bo'lak-bo'lak holda o'tkazilgan xususiy kuzatuvlarni birlashtirish va toplashga asoslanadi. Kosmik tasvirlar esa er ustini keng qamrovli tarzda yorishgani holda qiska muddatlarda ma'lumotlar olish, qiyin va borib bo'lmas joylar to'g'risida ham tezkor ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Yaqin kelajakda aerokosmik tasvirga olish er kadastrida ma'lumotlar olishning asosiy manbasi buladi. Kayd kilish zarurki, aerokosmik tasvirga olish materialari asbobi katta masshtablarda, ya'ni katta xududlarda er kadastro ma'lumotlarini olish uchun kullaniladi. Aloxida er egaliklari, erdan foydalanuvchilar tugrisidagi er kadastro ma'lumotlarni olish uchun odatdagи aerofototasvirlardan foydalanish mumkin.

Kuzatuvlar asosan ikki turga bulinadi:

- agroxujalik
- maxsus.

Agroxujalik kuzatuvlari tashki belgilari va xujalik foydalanishi ma'lumotlari buyicha erlarning sifat xolati tugrisidagi zaruriy ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi. Kuzatuv natijalari plan-kartografik materiallarda yoritiladi va maxsus qaydnomasiga tushuraladi.